



**“ GLOBAL EKOLOGIK SIYOSATLAR VA ULARNING MAHALLIY
JAMIYATLARGA TA’SIRI ”**

TDTrU Sotsiologiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Maxamatimina Durdonaxon Farxot qizi

TDTrU Sotsiologiya yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Xusanova Durdonova Abdusattor qizi

Matkarimova Jamila Durdiyevna TDTrU f.f.d.(DSc), v.b.professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada global ekologik siyosatlarning shakllanishi, asosiy yo’nalishlari va ularning mahalliy jamiyatlar hayotiga ta’siri tahlil qilingan. Juhon miqyosida ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosiy tashabbuslar, “Yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlanish maqsadlari kabi dasturlar asosida olib borilayotgan faoliyat ko’rib chiqilgan.

Mahalliy darajadagi ekologik muammolar, ularni boshqarishdagi davlat siyosati, fuqarolik jamiyati va aholining ekologik ongini oshirish borasidagi tashabbuslar ham tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: global ekologik siyosat, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik, mahalliy jamiyat, atrof-muhit muhofazasi.

Bugungi kunda global ekologik muammolar dunyoning barcha mamlakatlari va jamiyatlarini birlashtiruvchi umumiy masalalarga aylangan. Iqlim o’zgarishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi va tabiatning yo’qolishi kabi xavfxatarlar global miqyosda ekologik siyosatlarni shakllantirishni zaruriyatga aylantirdi. Global ekologik siyosatning asosiy yo’nalishlari barqaror rivojlanishni ta’minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. Biroq, bunday siyosatlarning amalga oshirilishi faqat global darajadagi tashabbuslar bilan cheklanmaydi. Mahalliy jamiyatlar va ularning ekologik salohiyati ham bu jarayonda katta ahamiyatga ega. Maqolada global ekologik siyosatlarning



mahalliy jamiyatlarga ta'siri, ayniqsa, ekologik ta'lif, fuqarolik jamiyatni va davlat siyosati bilan bog'liq jihatlar tahlil etiladi.

Global ekologik siyosatlarning yirik asosiy tashabbuslari xalqaro miqyosda amalga oshirilayotgan jarayonlar asosida shakllanadi. "Yashil iqtisodiyot" modeli ham ekologik siyosatlarning yangi yondashuvini namoyish etadi. Yashil iqtisodiyot atrof-muhitga zarar yetkazmasdan iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga harakat qiladigan tizimdir. Uning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sish, atrof-muhitni muhofaza qilish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdir. Bunda mahalliy jamiyatlar ham yirik o'yinchilardan biridir, chunki ularning ekologik ongi va faolligi bu siyosatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida katta rol o'yaydi.

Bundan tashqari, mahalliy darajadagi ekologik muammolar ham davlatlar siyosatiga ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy jamiyatlar o'rtaida ekologik masalalarga bo'lgan yondashuvlar farq qilishi mumkin, chunki har bir hudud o'zining tabiiy resurslariga, iqtisodiy holatiga va ijtimoiy sharoitlariga ega. Masalan, qishloq joylarda ekologik ta'lif va mahalliy resurslarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin, shuningdek, urbanizatsiya jarayonlari davom etayotgan shahar hududlarida atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil hududlarni kengaytirish kerak.

Ekologik siyosat - bu turli iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy strukturalarning atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni asrash sohasidagi strategiyani shakllantirish va amalga oshirishga yo'naltirilgan o'zaro faoliyati. Uning mohiyati turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini balanslash, shuningdek, ushbu maqsadlar va vazifalarni amalga oshirishda amalga oshirilayotgan harakatlar ustidan nazoratni tashkil etishdir. Ekologik siyosat jarayoniga ekologik muammolarni yaratuvchi subyektlar ham kiradi.

Ekologik boshqaru - bu boshqaru organlari va idoralarining tizimi bo'lib, har bir elementi o'zining aniq joyi va funksiyasiga ega. Ekologik boshqaru siyosiy jarayonni emas, balki kundalik ishlarni amalga oshirish, joriy nazoratni ta'minlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Boshqaru samaradorligi ko'p jihatdan davlatning ekologik siyosiy strategiyalariga va ularning xarakteriga bog'liq.

O'zbekistonning davlat ekologik siyosatini tadqiq qilishda, uning qanday rivojlanish bosqichida ekanligini, modernizatsiya tendensiyalarining mavjudligini,



G‘arb boshqaruv modellari to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekiston hududlariga qo‘llanilsa, yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

Global ekologik siyosatlar nafaqat davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi, balki mahalliy darajadagi amaliyotlarning muhimligini ham ko‘rsatadi. Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun global va mahalliy darajadagi siyosatlarning uyg‘unligi zarur. Mahalliy jamiyatlar ekologik siyosatlarning samarali amalga oshirilishida bevosita ishtirok etishlari kerak. Ekologik ta’lim, fuqarolik jamiyatining faolligi, davlat siyosatining barqaror rivojlanishga qaratilgan yondashuvi — bu barchasi muvaffaqiyatli ekologik keljakni ta’minlash uchun zarur omillardir. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun global ekologik siyosatlarni milliy sharoitga moslashtirish, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda amalga oshirish alohida muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Gavrilov V. I. (2016). Ekologik boshqaruv va barqaror rivojlanish. Moskva: Ekonomika.
2. Sharipov T. T. (2018). Rossiyada ekologik siyosat va uning rivojlanishi. Sankt-Peterburg: Universitet nashriyoti.
3. BMT (2019). Xotin-qizlar: ekologik xavf va barqaror taraqqiyot. BMT Xotin-qizlar tashkiloti, 2019-2020 yillar.
4. Kuzovkin A. S. (2017). Sanoat va ekologiya: muammo va yechimlar. Moskvada: Yangi nashr.
5. Shakhovskaya E. V. (2020). Ekologik siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: Rossiya misolida. Ekologiya va ijtimoiy tizimlar, 9(1), 45-56.